

1-10-2020

## DIRECTING TO DO HOMEWORK WITH EFFORT OF ELEMENTARY SCHOOL CHILDREN

Kamola Isaqali qizi Nuraliyeva  
*Namangan State University M.TTB-AU-18 group magistrant*

Yulduzkhan Kabildjanovna Shaamirova  
*Scientific director: PhD in Pedagogy*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

---

### Recommended Citation

Nuraliyeva, Kamola Isaqali qizi and Shaamirova, Yulduzkhan Kabildjanovna (2020) "DIRECTING TO DO HOMEWORK WITH EFFORT OF ELEMENTARY SCHOOL CHILDREN," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 2 : Iss. 1 , Article 46.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss1/46>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [sh.erkinov@edu.uz](mailto:sh.erkinov@edu.uz).

---

## DIRECTING TO DO HOMEWORK WITH EFFORT OF ELEMENTARY SCHOOL CHILDREN

**Cover Page Footnote**

???????

**Erratum**

???????

ISSN:2181-0427

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



**2020 йил 1 сон**

## **BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARINI QUNT BILAN DARS TAYYORLASHGA YO`NALTIRISH**

Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi

Namangan davlat universiteti M.TTB-AU-18 guruh magistranti

Ilmiy rahbar: pedagogika fanlari nomzodi Shaamirova Yulduzxon Kabildjanovna

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarini qunt bilan dars qilishga yo`naltirishda o`qituvchi va ota-onalarning o`rni muhim ekanligi haqidagi fikrlar bayon etilgan. Boshlang`ich sinf o`quvchilariga oila-maktab hamkorligida, maqsadli ta`lim-tarbiya berish yo`llari ko`rsatilgan.*

***Kalit so`zlar.** O`qituvchi, o`quvchi, ta`lim-tarbiya, maktab, oila, shaxs, dars, milliy istiqlol g`oyasi, muhit, jamoa, tafakkur, bilim, kitob.*

## **НАПРАВЛЕНИЕ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНОГО КЛАССА ДЛЯ УСЕРДНОГО УЧЕНИЯ**

Нуралиева Камола Исакали кизи

Наманганский государственный университет магистрант M.TTB-AU-

18группы Научный руководитель: кандидат педагогических наук

Шаамирова Юлдузхон Кабиляджановна

***Аннотация:** В этой статье даны пути и методы направления учеников начальных классов на усердного чтения.*

***Ключевые слова.** Учитель, ученик, обучение- воспитание, школа, семья-личность, урок, национально-независимое мнение, среда, общество, разум, знания, книга.*

## **DIRECTING TO DO HOMEWORK WITH EFFORT OF ELEMENTARY SCHOOL CHILDREN**

Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi

Namangan State University M.TTB-AU-18 group magistrant

Scientific director: PhD in Pedagogy

Shaamirova Yulduzkhon Kabildjanovna

***Abstract:** This article gives the ways and methods of directing primary school students to hard reading.*

***Key words.** Teacher, pupil, school, family, person, lesson, team, book, science, education.*

Uzoq tarixga nazar tashlaydigan bo`lsak, o`zbek xalqi dunyo tan olgan buyuk olim-u fuzalolarni tarbiyalagan. Qaysi bir davlatda o`sib kelayotgan yosh avlodga munosib ta`lim-tarbiya berilsa, o`sha yerda rivojlanish taraqqiy etish bo`ladi. Hozirgi davrda vatanimiz oldida buyuk kelajakni yaratuvchi barkamol avlodni, zamon va jamiyatning faol kishisini tarbiyalash kabi ma`suliyatli va mashaqqatli ayni paytda dolzarb vazifa har bir pedagog va ota-onaning burchlaridan biridir.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanib boradi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shaxsni tarbiyalash yuqoridagi o'zaro hamkorlikni ta'sir doirasi orqali bolaga ta'lim-tarbiya berish, uning komil inson sifatida shakllanishida salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilish juda muhimdir.

O'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniy ta'kidlab o'tganlaridek, dars bilan tarbiya orasida birozgina farq bo'lsa ham ikkisi bir – biridan ayrilmaydi, birini ikkinchisi to'ldiradi, huddi jon bilan tanga o'xshatganlar. Mashhur pedagog A.Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yohud ahloq" kitobida yaxshi va yomon xulqlar masalasiga o'tmasdan ilgari tarbiyaning buyuk roliga keng to'xtaladi va bolalarga yoshlik chog'idan boshlab ta'lim- tarbiya berish zarur deb uqtiradi. Bundan tashqari aqliy rivojlanish insonning butun umri davomida amalga oshsa, bundan farqli ravishda, fe'l-atvor, iroda, hissiyot asosan bolalik va yoshlik yillarda tarkib topadi.

Farzand tarbiyasi ma'suliyatni talab etadi. Ma'suliyatni his qilgan inson o'z ishini doimo puxta rejalashtirib, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qiladi. Natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini safarbar etadi. Bunga erishishning eng qulay yo'li-avvalo tafakkur va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish orqali olib boriladi. Har bir inson, har bir oila, jamiyatimizning asosiy vazifasi qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismonan va ma'nan yetuk, ota-onasiga, vataniga sodiq farzandlarni tarbiyalashdan iborat. Farzand tarbiyasida va ularning bilim olishlarida ota-ona va o'qituvchi birdek mas'uldirlar. Bu ota-onalar bilan tashkil etilgan maqsadli va tizimli hamkorlikdir. Chunki, boshlang'ich sinf o'qituvchisining faoliyatini maktabdan boshqa qismini hamkorlikdagi ish tashkil etadi. Har bir bolaning bilimdonligini va ijodiy qobiliyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirishlari kerakdir. O'quvchilar faoliyatini turli sohalariga yo'naltirish, bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab – quvvatlash uchun shart – sharoitlar hozirlashlari lozim.[2.29-b]

O'quvchilarning kundalik ehtiyojlari, intilishlari, talab va qiziqishlarini faqat dars jarayonida amalga oshirilmaydi. Har bir o'quvchi bilan darsdan so'ng yakka tartibda ishlash, pedagogik va psixologik jihatdan talab etiladi.

Maktabda avvalambor o'qituvchi sinfda sog'lom muhitni shakllantirishlari darkordir, "Hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun" shiorini qo'llagan holda sinf jamoasini ahil-inoq, bir-birlariga mehr-oqibatli qilib tarbiyalamoq lozim. Sharq mutafakkir bobomiz Al-Farobiy aytganlaridek "Inson yakka o'zi yuqori mavqega erisha olmaydi, uni jamoa orqali amalga oshirish mumkin"ligi haqida o'z munosabatlarini bildirganlar. O'qituvchi o'quvchilar ongiga har bir dars jarayonida milliy istiqlol g'oyasini singdirib borishlari maqsadga muvofiqdir bundan tashqari har bir fanga qiziqтира olishlari kerak. Har bir fanni mazmun mohiyatini ochib berib, bu fanlarni hayotimizga bog'lab uni qiziq ma'lumotlar asosida tushuntirilsa, hayotimizda bu fanlar suv va havodek zarur ekanligini uqtirsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'quvchini qaysidir fanga qiziqishi bo'lmasligi, fanni yaxshi o'zlashtira olmasligi bu asosan fan o'qituvchisining pedagogik mahorati yetarli emasligidan dalolat beradi. Bazi xolatlarda dars jarayonida o'quvchi mavzuni tushuna olishga qiynalyapti, uni o'qituvchi tushunishiga yordam bermay

keyingi mavzuga o'tib ketaveryapti. Shu sababli o'quvchida bu fanga bo'lgan qiziqishi va fan yuzasidan o'zlashtirishi pasayadi. Oqibatda bu dars bola uchun zerikarli fanga aylanadi.

Agar o'qituvchida pedagogik mahorat yetarli bo'lsa, dasturni o'zlashtirishga qiynalayotgan o'quvchilarni old partalarga, yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchi bilan birga o'tkazib, ziyraklik bilan kuzatib boradi. U o'quvchini o'ziga va boshqa o'quvchilarga sezdirilmagan holda u o'quvchini bilimini oshirib o'rtoqlariga yetkazib boradi. Chunki o'qituvchining ozgina e'tibori ham o'quvchini ma'suliyatli bo'lishga undaydi.

O'qituvchi o'quvchilar jamoasiga ushbu ibratli fikrni singdirishi lozim. "So'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim" dir. Kim qayerda, nimani tushunmasa, tortinmay so'rab o'rgansin. Zero, buyuk Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, "Oz-oz o'rganib daryo bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur" deb bejizga aytmaganlar. Dars davomida va darsdan bo'sh vaqtlarida bunday o'quvchilar bilan ko'proq muloqot qilish, o'quvchilarni o'qituvchiga yaqinlashtiradi. Tortinmaydigan, hayajonlanmaydigan bo'lib shakllanadi.

Shu bilan birgalikda, har bir o'quvchining shaxsiy va ijtimoiy psixologik tayyorgarligini ham inobatga olish lozimdir. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligiga, balki shaxsiy va ijtimoiy- psixologik tayyorgarligiga ham bog'liq. Masalan: Bolalarning yoshlari teng bo'lgani bilan ularning xarakteri, o'zlarini tutishi, xotirasi, diqqati, o'zlashtirishi, dunyoqarashi va hokazolar turli xil bo'ladi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda boshlang'ich sinf o'quvchilari diqqatini 15 daqiqagina jamlay oladi xolos. Shuning uchun o'qituvchi dars jarayonida turli harakatli dam olish daqiqalari, fanga oid tarqatma savollar, testlar, kichik guruhlararo musobaqalar o'tkazib turishlari lozimdir. Agar 45 daqiqa faqat dars o'tilaversa, bola darsda o'tirgani bilan uning hayoli, diqqati boshqa joyda bo'ladi. Chunki, o'quvchida charchash, zerikish paydo bo'ladi. O'quvchilarning kayfiyati ham o'zlashtirishi ham yaxshi bo'lmaydi. O'quvchilarni fanlarni yaxshi o'zlashtirishlari, albatta kayfiyatlariga ham bog'liqdir. Maktabga kelgan bolalarni kayfiyatlari har xil bo'lishi mumkin. Chunki, har bir bolaning oila muhiti turli xildir. Kimdur uyidan hursand bo'lib kelsa, kimdur uyidan hafa holatda ham kelishi mumkin. Bazi oilalardagi janjallar bolaga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Shuning uchun dars jarayoni yaxshi ko'tarinki kayfiyatda olib borilsa o'quvchilarni o'zlashtirishi ham, darsga bo'lgan qiziqishi ham yuqori darajada bo'ladi. Uydagi janjalli muhitni unitadi. Dars jarayoniga mukkasidan sho'ng'iydi. Shu bilan birgalikda, maktabda shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik o'quvchilarda tengdoshlari, o'qituvchilari bilan ijobiy munosabatga kirishishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, bazi vaziyatlarda ularga yonbosib, boshqa vaziyatlarda yonbosmasliklari lozim. Bunday hususiyatlar bolani erkin, mustaqil o'sishini ta'minlab beradi. Qunt bilan dars tayyorlashga yo'naltiriladi. Masalan: darsdan qaytgandan keyin maktab formasini almashtirib ovqatlanib olgandan so'ng ma'suliyat bilan uy vazifalarini bajarishga kirishadi. Qiziqish bilan dars tayyorlaydi, qo'shimcha adabiyotlardan, internet saytlaridan foydalanadi, yangiliklardan habardor bo'lib boradi. O'z ustida muttasil ishlaydi. Vaqtni qadriga yetadi. O'rganganlarini boshqalarga o'rgatadi. Bilmaganlarini so'rab o'rganadi. Kelajagini oldindan tasavvur eta oladi.



Bunday bolalar bilimli, a'lo xulqli, qobiliyatli, tartib-intizomli, ravon nutqli, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib shakllanadi. Hamda shunday o'quvchilar liderlik qobiliyatiga ega insonlar bo'lib yetishadi. Sinfda liderlarni ko'proq tayinlash, ularni o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. O'z ustida mustaqil ishlashga undaydi. Ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantiradi. Sinf jamoasi bilan ishlash madaniyati ortadi. Ma'suliyatli inson bo'lib yetishishiga turtki bo'ladi. Sinfda raqobat paydo bo'ladi. Raqobat bor joyda esa albatta o'sish bo'ladi. Chunki, o'quvchi topshiriqlarni sinfdoshidan yaxshi bajarishga, mukammal ado etishga harakat qilad. Agar o'quvchi loqaydlikka yo'l qo'ysa, o'rtoqlari, ustozini yonida yuzi yerga qarashini his etadi.. Ularni ishonchini yo'qotmaslikka harakat qiladi. Bu oilasini shaniga munosib ish emasligini tushunib yetadi.

O'qituvchi o'z faoliyatini amalga oshirar ekan unga oila mahalla hamkorligi ham muhim ro'l o'ynaydi.

Prezidentimiz ham o'z nutqida: " Bizni hamisha o'ylantirib keladigan muhim masala- bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ko'proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidladilar. Zeroki, 2019-yil 29-avgust kuni Xalq ta'limi vazirining 282-sonli buyrug'i bilan "Sinf rahbarlarining faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi muvaqqat nizom tasdiqlandi. Ushbu nizomda ta'lim muassasasidan tashqarida darsdan keyingi paytdagi o'quvchilarning xatti-harakatlari uchun qonunchilik xujjatlariga muvofiq ularning ota-onalari javobgar hisoblanishi, bunday holatlarda esa sinf rahbarlariga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilmasligi alohida band sifatida ko'rsatilib o'tildi. Haqiqatdan ham bola tarbiyasi murakkab jarayon hisoblanadi. Bola asosan oilada tarbiyalanadi. Qolgan qismini maktab, mahalla... to'ldiradi. Bola oilada qanchalik to'g'ri tarbiya topsa, bu tarbiyasini jamoa ichida, ko'cha-ko'yda, maktabda, mahallada ... namoyon etadi. Bolani tartib intizomidan oilasidagi muhitni bilib olish mumkin. Masalan: Kattalarga salom berish, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lish, o'ng qo'l yurish qoidasiga rioya qilish, tashlandiq narsalarni belgilangan qutiga tashlash, so'zlashish jarayonida oltin so'zlar ( rahmat, barakalla, minnatdorman, tashakkur, quvondim...) dan foydalanish, muomala madaniyati(qo'pol so'zlarni ishlatmaslik, o'zgalarni shaniga tegadigan ortiqcha so'zlarni so'zlamaslik)dan bilib olish mumkindir.

Bola tarbiyasida oilaning turmush tarzi va ota-onalarni farzandlari bilan munosabati ham muhimdir. Masalan: oilada bola o'z o'rnini bilishi, oila a'zolarini hurmat qila olishi, ularning mehrini his qila olishi, shunday yurtda, shunday oilada tug'ilganiga shukronalar aytishni bilishi, isrofgarchilikka yo'l qo'ymasliklari, vaqtni qadriga yetishi, bo'sh vaqtini bekor o'tkazmasligi, uy vazifalarini muntazam bajarib borishi, imkon tug'ildi deguncha bilim olishga harakat qilishi, biror ish qilishdan oldin ota-onalar, o'zidan kattalar bilan maslahatlashi, har bir qadamida oilasi shanini o'ylab ish qilishi, kelajak uchun rejalar tuzib uni amalga oshirish uchun harakat qilishi bularning barchasini

oilada shakllantirilsa, bolaning kelajagi uchun poydevor bo`la oladi. Shu bilan birgalikda ota-ona farzandiga vaqt topib o`zlashtirishini, kundalik daftarini, fan daftarlarini nazorat qilib, uy vazifalarini tayyorlashga ko`maklashib, qiynalgan topshiriqlariga oydinlik kiritish lozim. Bajarilgan uy vazifalarini sinchiklab kuzatib borishlari kerak. Farzandining o`z qiziqishi asosida qunt bilan dars tayyorlayotganini ko`rib, undan faxrlanib, kelajakda yaxshi kasb egasi bo`lishiga, shu yurtimizning bayrog`ini yanada ko`klarga ko`tarishiga ishonishini shu o`rinda aytib, farzandini bag`riga bosib, uni o`z mehri bilan quvontirsalar unda ijobiy o`zgarishlar yanada avj oladi.

Farzandiga ta`lim-tarbiya berayotgan ota-onalarga tavsiyalar:

- Farzandingiz bilan muloyim, osoyishta ohangda gaplashing.
- Agar farzandiz siz bilan suhbatlashayotgan bo`lsa, uni diqqat-e`tibor hamda hamdardlik bilan tinglang.
- Farzandingizga nisbatan aniq va qat`iy talab qo`ying.
- Farzandingiz bilan suhbatda sabr-toqatli bo`ling.
- Farzandingizni bilishga savol berishga bo`lgan intilishini qo`llab quvvatlang.
- Savollariga erinmay to`liq javob bering.
- Biron bir ishni yoki vazifani yaxshi bajarganda bolani taqdirlash uchun maqtash va o`pib qo`yishdan tortinmang.
- Farzandingizni ko`zlariga qarab suhbatlashing.
- Farzandingizdan maslahat so`rang (nima ovqat qilay, uyni qanday bezatay)
- Farzandingiz bilan birga muzey, ko`rgazma, kutubxona , istirohat bog`lariga tashrif buyuring. Tariximiz haqida ko`roq so`zlab bering.
- Farzandingiz bajara olmaydigan ishni qilishga majbur qilmang.
- Farzandingizni boshqalar oldida tanqid qilmang.
- Farzandingizni boshqa bolalar, aka-ukalari, qo`ni-qo`shnilar, tanish-bilish va qarindoshlarning farzandlari bilan solishtirmang.[4.33]

Xulosa qilib aytganda o`quvchilarni qunt bilan dars tayyorlashga qiziqitira olish, bu o`quvchini, ustozini, ota-onasini, yurtini eng katta yutug`idir. Chunki hamma yomon illatlar bekorchilikdan, bilimsizlikdan kelib chiqadi. Agar bola dars qilishga qiziqsa, u bo`sh vaqt bo`ldi deguncha o`z ustida ishlaydi. Mustaqil uy vazifalarini bajaradi, kitob mutolaa qiladi va xakozo. Kitob mutolaa qilgan inson esa yaxshini yomondan farqlaydi, xotirasi mustahkamlanadi, dunyoqarashi kengayadi. Shuning uchun o`quvchilarni qunt bilan dars tayyorlashga yo`naltirilsa, u boladan ijobiy yutuqlar kutish mumkin. Zero, O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek “Yurtimizda qilinayotgan barcha ishlar farzandlarimizning baxtu saodati, ularning yorug` kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Odobli, aqlli, mehnatsevar va iymon-etiqodli farzand nafaqat ota-onaning balki, butun jamiyatning eng katta boyligidir”. [5.57-b.]

#### **References:**

1. A.Avloniy “Turkiy Guliston yohud ahloq” Yoshlar nashriyot uyi 2018yil.
2. Umumta`lim fanlari metodikasi jurnali “Toshkent” 2018-yil. may N5(89) 29-bet.
3. O`zbekiston yoshlar ittifoqi qoshidagi kamalak bolalar tashkiloti “Yoshlar nashriyot uyi” Toshkent



4. Mahoratli pedagog jurnali "Toshkent" 2018-yil fevral N2.
5. Karimov I.A " Yuksak manaviyat yengilmas kuch" –T.:Manaviyat, 2008y.
6. Jo`rayev. B. O. Bola-olam bezagi. Pedagoglar

**МУНДАРИЖА**

**ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ**

**01.00.00**

**ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ**

**PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES**

1	Биринчи тартибли чизикли оддий дифференциал тенглама учун нолакал шартли масалалар Тиллабаева Г.И.....	3
2	О разрешимости одной краевой задачи для уравнения третьего порядка с кратными характеристиками в прямоугольной области Апаков Ю. П, Умаров Р.А.....	6
3	Dssc (dye sensitized solar cell) қуёш элементлари ва уларнинг айрим физик хоссалари Абдукаримов А.А.....	17
4	The probability of inheritance of non-linked genes in the 5th generations Ibragimov.R.....	22
5	Влияние рекомбинационных процессов на механизм токопрохождения $\psi$ - $\psi$ - $\psi$ - переходах Мадаминов Х.М.....	31
6	Turli tartibda buzilishga ega bo'lgan aralash tipdagi tenglama uchun bir chegaraviy masala haqida Maxsudova Sh, Hakimov O'.....	36
7	Исследование влияния характера термообработки на время жизни носителей заряда в кремнии, легированном медом Мирзарайимов Ж.З .....	40
8	Непараметрическое интервальное оценивание многомерной плотности вероятности и её производных Рахимова Г.Г .....	46
9	Uchinchi tartibli keli daraxtida tashqi maydonli bir model uchun ba'zi asosiy holatlar Rahmatullayev M.M .....	52
10	Фотоэлектрические свойства $n$ - $\text{GaAs} - p$ - $(\text{GaAs})_{1-x}(\text{Ge}_2)_x$ гетероструктур с нанокристаллами германия Бобоев Акрамжон Йулдашбоевич, Усмонов Жохонгир Нишонбоевич, Махмудов Х.А, Уринбоев М.И, Тожимухаммадов А.К.....	58
11	Ўзбекистонда информатика фанини ўқитишнинг қисқа тарихи Отаханов Н.А.....	64

**КИМЁ ФАНЛАРИ**

**02.00.00**

**ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ**

**CHEMICAL SCIENCES**

12	Oddiy o'g'itlarning sifat ko'rsatkichlari uchun ba'zi texnologik kattaliklarni o'rganish Giyasidinov A.L, Sultonov B.E, Namazov Sh.S, Xamraqulov Z.A.....	69
----	--	----



27	Хитой фалсафий тафаккурида инсон табиати ҳақидаги фикрлар ва унинг Ван Ян Мин ғояларидаги талқини Хошимов С.С.....	173
----	---	-----

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**  
**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**  
**PHILOLOGICAL SCIENCES**

**10.00.00**

28	Ўзбек тилшунослигида тош номларини тадқиқининг амалий аҳамияти Бозорова Е, Кадирова З .....	178
29	“Бобурнома” да оила ва хотин-қизлар мавзусининг ёритилиши Қосимова Г.Н.....	182
30	Ingliz uzbek va rus tillaridagi oʻtimli va oʻtimsiz feʻllar Najmiddinov J, Bahodirov A.....	187
31	Barriers to the use of computer-based language teaching by english teachers. Azamov S.....	193
32	Формирование лексических навыков в английском языке в средних школах Ботирова З.Х.....	199
33	Алломорфирование модификационных суффиксов с деминутивным значением Зинин Е.О.....	204
34	Жеймс Жойсинг “Улисс” асарининг лексик тадқиқининг айрим муаммолари. Bahriddinov M.M, Turgʻunov D.B, Tojiboyev I.M.....	208
35	Интенсификация/деинтенсификациянинг синоним ва вариант парадигмаларни шакллантириши Зияев А.И.....	213
36	Нерегламентированная пунктуация в романе е. замятина «мы» Гайбуллаева З.Т.....	220
37	Психолингвистиканинг вужудга келиш тарихи Фазлиева А.Ж.....	226
38	Синтактик позиция ва гапни бўлакларга ажратиш тамойиллари Усмонова Ҳ.....	234
39	Ғафур Ғулум насрида бадий-тасвирий воситаларни қўлланиши Ҳамидова М.О.....	238
40	The mythology and fantasy in the work of j.r.r. tolkien “the lord of the rings” Shergoziyev Sh.....	243
41	Ўзбек тилшунослигида синонимиянинг анъанавий ва замонавий талқини Раҳмонов Ғ.Р.....	249
42	Тил ижтимоий функциялари кенгайишининг сўз услубий қўлланишига таъсири Қўшоқова Б.Й.....	255

**ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**  
**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**  
**PEDAGOGICAL SCIENCES**

**13.00.00**

43	Chet tillarni oʻrgatishda muammoli taʼlim texnologiyasi Imomov I A.....	263
----	--	-----

44	Teaching process writing effectively in efl classes. Musayeva G.....	267
45	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni yuzaga keltirish yo'llari Satarov B, So'fiboyeva G .....	273
46	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini qunt bilan dars tayyorlashga yo'naltirish Nuraliyeva K.I.....	278
47	Чет тилларни ўқитишда ўзаро ҳамкорлик технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари Абдуллаева М.Н.....	284
48	Инновация-ҳозирги замонавий таълим муассасаси ўқитувчисининг педагогик тафаккурини ривожлантириш воситаси сифатида Абдурасулов Ф.П.....	291
49	Таълим тизимида касбий компетентлик тушунчасининг таҳлили Абдурахимов.Қ.....	296
50	Алишер Навоий шахсини ўрганишда тарихий, илмий, бадиий асарлардан фойдаланиш Абдуллаев К.....	304
51	Талабаларда саломатлик маданиятини шакллантиришнинг айрим педагогик жиҳатлари Джураев Э.М, Акзамов С.Д.....	308
52	Жисмоний маданият ўқитувчиси касбий тайёргарлиги жараёнининг айрим замонавий педагогик хусусиятлари Исломов И.А, Парпиев О.А.....	313
53	Boshlang'ich ta'limga integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish yo'llari Abdullayeva N.M.....	317
54	Маҳкум шахсни ижтимоий меҳнат билан тарбиялаш давр талаби: ижтимоий тажриба Тураханова Д.А.....	324
55	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetentligining asosiy tarkibiykomponentlari Ne'matova S.I.....	330
56	Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг ахборот-коммуникацион тайёргарлигини компьютерли лойиҳалаш воситасида такомиллаштириш Хақимов Ж.О.....	336
57	Компетенциявий ёндашув - мактабгача ёшдаги болаларни интеллектуал ривожлантириш омили сифатида Далибаева Ш.Т.....	343
58	Таълим самарадорлигини оширишда инновацион таълим технологияларини қўллаш замон талаби сифатида Пўлатова Н.М.....	348
59	Муҳаммад Юсуф ҳаёти ва шеърятини интерфаол усуллар орқали ўрганиш Сайдахмедова Н.С.....	353
60	Методические основы формирования умений и навыков при обучении профессиональному английскому языку	358



Исроилова Д.М.....	
61 Новые инновационные технологии в преподавании иностранного языка. Нишанова, Т. Икромова М.....	364
62 Спортнинг ёшлар маънавий камолотидаги ижтимоий-педагогик функцияси Тўхтаназаров И.У, Махмутаев А.М.....	367
63 О профессионально–прикладной физической подготовке студентов Усманов Б.Х.....	373
64 Талаба-ёшлар этник ўзлигини англашида ота-оналар педагогик саводходлигининг аҳамияти Хайдарова Х.Р.....	379
65 Оилада ахлоқий-маънавий тарбияда шахслараро муносабатларнинг ўзига хос хусусиятлари Мирзаева Фароҳат Одилжоновна.....	383
66 Жамоавий муносабатларда мактабгача тарбия ёшидаги болаларда шахс сифатларини шакллантириш аспекти Ярманова Ю.Б.....	389
67 O'рта maxsus ta'lim va oliy ta'limda matematika fanlarini uzviylikining ta'minlanganlik darajasi Ustadjalilova X.....	394
68 Бўлажак мактабгача таълим муассасалари педагог-тарбиячиларини тайёрлашнинг педагогик-психологик хусусиятлари Хушназарова М.Н.....	399
69 Kimyo ta'limida modulli tizim va elektron darslik yaratish metodikasini takomillashtirishning amaliy samaradorligi Ixtiyarova G.A Ahadov M.Sh.....	405
70 Компьютер ўйинлари ёрдамида таълим олувчиларнинг математик саводхонлик даражасини аниқлаш Нажмиддинова Х.....	413
<b>СИЁСИЙ ФАНЛАРИ</b> <b>ПОЛИТИЧЕСКИЕ НАУКИ</b> <b>POLITICAL SCIENCES</b>	
71 Амир Темур сиёсатида “кенгаш” институтининг роли Алимардонов Т.Т.....	421